



THE ROLE OF HYDRO-RECREATION RESOURCES IN THE DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN SURKHANDARYA REGION

Mustayev Qurbonmurod Raxmon o'g'li ¹
Hazratov Qo'lyi Qodirovich ²

^{1,2} Termez State University, Geography student
<https://doi.org/10.5281/zenodo.4767391>

ARTICLE INFO

Received: 5th May 2021
Accepted: 10th May 2021
Online: 15th May 2021

KEY WORDS

international tourism,
cultural and historical
recreation, ecotourism,
reservoirs, waterfalls and
springs, ecotourism
resources, hydro-recreation
resources.

ABSTRACT

This article considers practical projects on the tourism potential of Surkhandarya region, ecotourism resources, their types, territorial location and the organization of tourism zones in the region's reservoirs.

SURXONDARYO VILOYATI EKOTURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA GIDROREKREATSIYA RESURSLARINING AHAMIYATI

Mustayev Qurbonmurod Raxmon o'g'li ¹
Hazratov Qo'lyi Qodirovich ²

^{1,2} Termiz davlat universiteti, Geografiya ta'lim yo'nalishi talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 5-May 2021
Ma'qullandi: 10-May 2021
Chop etildi: 15-May 2021

KALIT SO'ZLAR

xalqaro turizm, madaniy-
tarixiy rekreatsiya,
ekoturizm, sv omborlar,
sharshara va shifobaxsh
buloqlar, ekoturistik
resurslar, buloq.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati turizm salohiyati, ekoturizmi resurslari, ularning turlari, hududiy joylashuvi hamda viloyat suv omborlari hududida turizm zonalarining tashkil etilishi bo'yicha amaliy loyihalar ko'rib chiqilgan.

Kirish: Hozirgi vaqtda turizm dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylandi. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbai bo'lib qolmoqda. Agar turizmning ommaviy rivojlanish davrining boshlanishida,

ya'ni 1950-yillarda jahon bo'yicha turistlar soni 25 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, Jahon banki (The World Bank)ning ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'yicha turistlar soni 2000-yilda 670 mln, 2005-yilda 823 mln, 2010-yilda 974 mln, 2015-yilda 1,228 mlrd.dan oshib ketdi.



Keyingi yillarda ham dunyo bo'yicha sayyohlar soni ortib bordi. 2017-yilda dunyo bo'yicha 1,363 mlrd sayyoh qayd etilgan bo'lsa, 2018-yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatkich 1,442 mlrd ga, ya'ni 5,8 % ga oshgan. Sayohatchilarga ko'rsatilgan eksport xizmatlari qiymati qariyb 1,650 trillion AQSH dollarini tashkil qilgan. Xalqaro turizm jahon YMMning deyarli 10 % ini, xizmatlar eksportining 1/3 qismini bergan holda tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy ko'rinishlaridan biriga aylanib oldi.

Shu bois, dunyoning ko'plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

2018-yilda eng ko'p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (89,3 mln), Ispaniya (82,7 mln), AQSH (79,7 mln), Xitoy (62,9 mln) va Italiya (61,5 mln) kuchli beshlikni egallagan bo'lsalar, Ispaniya, Gretsiya, Italiya, Kipr kabi davlatlar mazkur sohani o'z milliy iqtisodiyotlarining ixtisoslashgan tarmog'iga aylantirishdi. Jahon mintaqalari orasida Yevropa turistik oqimining eng katta qismini o'ziga yo'naltirganligi bilan ajralib turadi. So'ngi yillarda Osiyoning xalqaro turizmdagi ahamiyati ortmoqda. Ayniqsa, Sharqiy Osiyo, Janubi-sharqiy Osiyo va Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari ko'p sonli sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda. [6]

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabr „O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida“ PF-4861-sonli, 2017-yil 7-fevral „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha

Harakatlar strategiyasi to'g'risida“ gi PF-4947-sonli, 2017-yil 16-avgust „2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida“ gi PQ-3217-sonli, 2018-yil 6-fevral „Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi PQ-3509-sonli, 2018-yil 7-fevral „Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida“gi PQ-3514-sonli qarorlarida mamlakatning turizm salohiyatini yanada oshirish, ushbu sohani tubdan rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish, turizmning xalqaro standartlarga muvofiq infratuzilmasini shakllantirish, mintaqalarda yangi turizm yo'nalishlari tashkil etish, kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish natijasida turizm sohasi mamlakatimizning turli mintaqalarida tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda 1482 ta turistik kompaniyalari, 1188 ta joylashtirish vositalari(mehmonxona), 886 ta mehmon uy (hostel)lari va boshqa ko'plab xizmat ko'rsatish tarmoqlari faoliyat ko'rsatmoqda. [5] Bu sohada Respublikamizda ham keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirilishi natijasida diyorimizga 2010-yilda 975 mingdan ziyod xorijlik turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2017-yilda 2,690 mln dan oshib ketdi. 2018-yil yakunlariga ko'ra O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni 2017-yilga nisbatan deyarli 2 marta oshib, 5,340 mln. kishiga yetdi. Bu ko'rsatkich bilan mamlakatimiz Jahon bankinging eng ko'p xorijlik turistlarni qabul qilish reytingida 57-o'rinda qayd etildi. [6]

Surxondaryo viloyati madaniy-tarixiy va tabiiy rekreatsiya resurslarga boy hudud hisoblanadi. Mamlakatimizda turizmga yaratilayotgan keng imkoniyatlar



tufayli viloyat hududiga tashrif buyuradigan xalqaro va ichki turistlar soni sezilarli ko'paydi. Ammo xalqaro turistlarga asosan madaniy-tarixiy obektlar xizmat qilmoqda. Tabiiy rekreatsiya

resurslari bo'lgan daryo, ko'l suvomborlar, g'orlar, tabiatning qiziqarli obektlari, sharshara va buloqlar ko'p bo'lsada, ular yonida xizmat ko'rsatish tarmoqlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Surxondaryo viloyati tumanlarining ekoturistik resurslari [4]

1-jadval

Tumanlar	Ekoturistik resurslar				
	Sharshara va shifobaxsh buloqlar	G'orlar	Landshaftlar	Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar	Suv havzalari
Boysun	Xo'jamayxonota, Omonxona, G'alchalik buloq, Uchko'z buloq, Itbuloq, Qanishbuloq, Toshbuloq, O'mizbuloq, Oynabuloq	Qorong'u Yulduz, Teshiktosh	Boysun tog'larining pistazorlari	Sayrob chinorlari, bo'r yoshidagi dinozavr izlari	
Denov	Sherakmozor buloq, Havzimaydon buloq			Dendrariy	
Jarqo'rg'on					Oqtepa suv ombori
Muzrabot		Qora kamar			
Oltinsoy	Xujaipok ota suvi, Qo'tir buloq	Xojai-pok		Laylak xona qoyalardagi rasmlar	Degrez suv ombori
Sariosiyo	Sangardak			Yura yoshidagi dinozavr izlari	To'palang suv ombori
Termiz	Jayronxona, Janub Marvaridi (Semashko)		Kattaqum cho'li	Payg'ambar oroli	Uchqizil suv ombori, Amu-Surxon sohili
Uzun	Biyasig'mas buloq, Jiyda buloq, Otkamar buloq, Oybuloq, Sho'rbuloq, Sariqamish buloq, Tolli-chashma		Bobotog'ning pistazorlari		



<p>Sherobod</p>	<p>O‘rinbuloq, Tahirchoq buloq, Sassiqbuloq, Xaliya buloq, Qozon buloq, Alamli buloq, Sho‘rbuloq</p>	<p>Xo‘jai-kon</p>		<p>Surxon davlat qo‘riqxonasi, Zarautsoy qoyatosh rasmlar</p>	
<p>Qumqo‘rg‘on</p>	<p>Toldibuloq</p>		<p>Tog‘ va tog‘ oldi adirlari</p>		<p>Janubiy Surxon suv ombori</p>

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki gidrorekreatsiya resurslari ekoturizmning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Dam olishning ko‘pgina turlari suv havzalari bilan bog‘liq. Shifobaxsh suv ichimlik sifatida turli kasalliklarni davolashda, termal va radonli suv vanna sifatida qabul qilinadi, yer usti suvlari sayr qilishda, cho‘milishda, suzishda, sport o‘yinlarini o‘tkazishda, sharsharalar dam olish, asab xastaliklarini davolashda asqotadi, tog‘ ko‘llari nafaqat cho‘milish, shuningdek tabiatdan lazzat olish, tabiat tarovati va go‘zalligini tomosha qilish, shu bilan asabni tinchlantirish, charchagan organizmga dam berishda ancha ahamiyatli. Shu jihatdan suv resurslari atroflicha o‘rganilishi va foydalanishi mumkinligi to‘g‘risida ilmiy xulosa chiqarish zarur.

Surxondaryo viloyati mamlakatimizning eng janubida joylashgan surqiyosh o‘lka ekanligidan yoz mavsumida aholi ko‘proq tog‘lardagi havosi salqin, toza, suv havzalariga oshiqadi. Vohamizning ayniqsa tog‘ va tog‘oldi mintaqalari daryo va buloqlarga boyligi ichki turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek viloyatda bir qator gidrorekreatsiya obektlari ham borki, ular diniy turizm bilan bog‘lanib ketgan.

Masalan, Omonxona, Xo‘jaipok, G‘o‘rinbuloq, So‘fi Ollohyor, Xo‘jamayxonaota kabi shifobaxsh buloqlar diniy turizm maskanlari hisoblanadi. Malumki, suv resurslaridan foydalanish mavsumiy hisoblanadi. Mavjud imkoniyatlardan yil davomida samarali foydalanish uchun turistik obektlarda turli festival, konferensiya, turnir va anjumanlar tashkil etish zarur.

Surxondaryo viloyati suv omborlari hududida turizm zonalarini tashkil etish bo‘yicha ham bir qancha amaliy loyihalar ishlab chiqilgan va ular bajarilmoqda.[5]

Uchqizil suv ombori. Ushbu hudud Termiz tumanida joylashgan bo‘lib bu hududga bahor yoz oylarida kunlik o‘rtacha 1000-1100 kishi, qish oylarida 400-600 kishi dam olish uchun tashrif buyuradi. Ushbu hududga mahalliy dam oluvchilardan tashqari qo‘shni Afg‘oniston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalaridan dam olish va davolanish uchun mehmonlar tashrif buyurishadi.

Termiz shahar markazidan uzoqligi 18 km bo‘lgan 1 gektar hududda mehmonxona, restoran, rattalar va bolalar uchun basseyn, bolalar attraksioni, baliq ovi, mehmon uylari va boshqa obektlar qurilmoqda. Qurilishni 2021-yilda tugallash rejalashtirilgan.



1-rasm. Uchqizil suv ombori. Hozirgi holati.



2-rasm. Uchqizil suv ombori. Keyingi holati.

Janubiy Surxon suv ombori.

Qumqo'rg'on tumani hududidagi Janubiy Surxon suv ombori manzarasi va uning tevarak atrofi maftunkorligi bilan kishini diqqat e'tiborini tortadi. Xorijiy sayyohlarni

jalb qilish uchun ekosafari, mehmonxona va baliq ovi loyihalarini amalga oshirish tavsiya qilinadi. Suvning tabiiy sharoiti yozi issiq, qishi iliq, iqlimi biroz nam va issiqdir.



3-rasm. Janubiy Surxon suv ombori. Hozirgi holati.



4-rasm. Janubiy Surxon suv ombori. Keyingi holati.

O‘rtacha yillik harorati 33°, qishda 18°, yozda 50°. Umumiy maydoni 5700 ga, muhofaza hududi 1100 ga. Maksimal uzunligi 20 km, maksimal kengligi 6,2 km, o‘rtacha kengligi 3 km. Maksimal chuqurlik 27 m, o‘rtacha chuqurligi 12 m. Termiz shahar markazidan uzoqligi 80 km bo‘lib, 0,5 gektar maydonga mehmonxona, restoran, kattalar va bolalar uchun basseyn, bolalar

attraksioni kabi obektlarni qurish tavsiya etilmoqda.

To‘palang suv ombori. Sariosiyo tumani sayyohlarni o‘zining betakror tabiati bilan o‘ziga jalb qiladi. Bu hudud qalin qor yog‘ishi va u qorlarning uzoq vaqt saqlanib qolishi bilan ajralib turadi. To‘palang suv ombori ikki tog‘ orasida joylashgan go‘zal hududdir.



5-

5-rasm. To‘palang suv ombori. Hozirgi holati.



6-rasm. To‘palang suv ombori. Keyingi holati.

Hududning Termiz shahar markazidan uzoqligi 220 km bo‘lib, 1 gektar yer ajratilgan. Ushbu hududga xorijiy sayyohlarni jalb qilish uchun qishki oromgoh, mehmonxona va turistik ob‘ektlar qurish tavsiya qilinadi.

Xulosa va takliflar.

1. Viloyatdagi mavjud barcha sanatoriya va sihatgohlarni xorijiy turistlar qabul qilishga moslashtirish va jahon standartlariga javob beradigan darajaga ko‘tarish.

2. “Janubiy Surxon” va "To'palang" suv omborlarining muhofaza hududlarini

chuqur tahlillar asosida o‘rganish va zarur infratuzilmani yaratib, ekoturizmni rivojlantirish.

3. G‘o‘rinbuloqsoy va Xo‘jamayxona mineral suvlari yaqinida klinika va sanatoriya obyektlarini qurish.

4. Qo‘shni mamlakatlarda Surxondaryo viloyatining tibbiyot turizmi imkoniyatlari va eng mashhur tabiiy shifo maskanlari bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish.

5. Viloyatning asosiy ichki transport turi bo‘lgan avtomobil transporti uchun zarur yo‘l infratuzilmasini shakllantirish va xizmat ko‘rsatish qamrovini kengaytirish.



6. Turistlar ko'p tashrif buyuradigan joylar va sayyohlik marshrutlarida sanitariya-gigiyena shoxobchalarini tashkil etish va atrof-muhitning buzilishiga yo'l qo'ymaslik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 324-coH 03.05.2018. Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-3718540>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 27-maydagi 332-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4832412>

3. Usmonov M.R., Abdunazarov H.M., Sattorov A.U. „Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari” O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti 47-jild. -T.: 2016-y. 120-123.

4. To'raev Q.T. „Surxondaryo viloyatida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari” O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti 53-jild. -T.: 2018-y. 121-125 b.

5. www.tourism.uz

6. www.data.worldbank.org